

## TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O'RNI

Foziljonova Nigoraxon

*FarDU filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi*

*1-kurs 23.85-guruhan talabasi*

Aldashev Ilxomjon

*FarDu Axborot texnologiyalari kafedrasasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada axborot texnologiyalarining o'quvchi-talabalarga ta'limga berish jarayonidagi roli tahlil etilgan. Bu boradagi erishilgan yutuqlar tahlilga tortilgan.*

**Kalit so'zlar:** *axborot texnologiyalari, ta'limga tizimi, texnik vositalar.*

Bugungi globallashuv jarayoni tezlashib ketgan zamonda hech bir inson o'z hayotini texnik vositalarsiz, aniqroq aytganda, axborot texnologiyalari vositalarisiz tasavvur qilolmaydi. Oddiy kundalik turmushimizda ishlatiladigan ko'plab buyumlar ham ma'lum dasturga asoslangan texnologiyalar asosida ishlaydi va bizning og'irimizni yengil qiladi. Masalan, elektr choynak, muzlatgich, mikroto'lqinli pech va hokazo. Bular ham axborot texnologiyalari hisoblanadi. Chunki ular ham ma'lum dasturiy va texnik ta'minotga ega. Demak, axborot texnologiyalari deganda nafaqat kompyuter, noutbuklar, balki mana shunday vositalar ham tushunilishi kerak.

Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ta'limga jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanmaslikning imkoniy yo'q. Hozirda tobora zamonaviylashib, dunyo standartlariga javob beradigan maktab va universitetlarning ta'limga samaradorligini oshirishda ularning ahamiyati juda katta. Misol tariqasida yurtimizdagi maktab va universitetlarning zamonaviy kompyuter hamda kompyuter texnologiyalari bilan bosqichma-bosqich jihozlanayotganini aytib o'tish joiz. Bu o'quvchi va talabalarning dunyoqarashini kengaytirishga va eng so'nggi bilimlardan boxabar bo'lishlariga keng yo'l ochib beradi.

Avvalo, maktab ta'lmini oladigan bo'lsak, hozirda deyarli barcha maktablar kompyuter vositalari bilan ta'minlangan. O'quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish uchun ularni boshlang'ich sinfdanoq axborot texnologiyalari vositalari bilan tanishtirish zarur. Ayniqsa, 1-sinf bolalariga harflarni o'rganish uchun alifbo o'yini juda qo'l keladi. Bolalar uchib chiqayotgan harfni klaviaturadan topish orqali ularni tez o'zlashtiradilar va shu bilan birga zehnlari ham charxlanadi. Sinflar o'rtasida yoxud bitta sinfning ichida bu o'yinni musobaqa tarzida o'ynash ham o'zining yaxshi natijasini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari har doim qiziqarli o'yinlarga o'ch bo'lishadi. Shuning uchun ham o'yindan, ham texnika vositalaridan dars jarayonida ko'proq foydalanish ularning bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada aytarli yutuqlarga erishish uchun, albatta, barcha sinf xonalari kerakli jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinflarga ingliz va rus tillarini o'rgatishda

katta ekranlar qo'l keladi. Bunda o'quvchilar ekranda ko'ringan narsaning chet tilidagi muqobilini aytish orqali shu tilni tezroq o'zlashtiradilar.

Maktab o'quvchilariga o'qitiladigan kimyo, biologiya va fizika kabi amaliy darslarda ham axborot texnologiyalari vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu darslarda nafaqat amaliy ishlar bajarish, balki turli reaksiya jarayonlari, mexanik harakatlar va shu kabilarni kompyuter orqali ekranda ko'rish ham foydadan xoli bo'lmaydi. O'quvchilar uchun eng muhim hisoblangan informatika darslarida bunday vositalardan foydalanish birinchi o'rinda turadi. Elektron doskalardan foydalanish mahoratini shakllantirish ham bu fanning asosiy maqsad hamda vazifalaridan biridir. Shu o'rinda mamlakatimizda maktablar uchun joriy etilgan Kundalik com ilovasini aytib o'tish kerak. O'quvchilarning baholanishi uchun jurnal vazifasini o'taydigan bu ilova ma'lum ma'noda o'qituvchi va o'quvchilarning texnologiya borasidagi tajribalarini yanada orttirdi deyish mumkin. Bunday baholanish uslubida inson omilining ahamiyatga ega emasligi ham shaffoflikni ta'minlaydi.

Davlat oliy ta'lim muassasalarida bu borada sezilarli rivojlanishlar bor va davom etmoqda. Har bir auditoriya televizor va maxsus kompyutelar bilan jihozlangan. Talabalarga amaliy va seminar darslarida ana shunday texnologiyalardan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini o'zlari olib borishlari uchun shart-sharoitlar mavjud. Bu talabalarga kelgusi faoliyatlarida yetuk kadr bo'lib ishlashlarida yordam beradi. Universitetlarda ham maktabdagi singari baholash platformasi bo'lib, u Hemis deb nomlanadi. Bunda ham umuman inson omilidan foydalanishning imkoniy yo'q, talabalar topshiriq bajarishiga qarab baholanib boradi. Ular shu jarayonda biror topshiriqni bajarish uchun izlanadi, ma'lumot axtaradi va shu asnoda kompyuter vosialari bilan bevosita muloqotda bo'lish orqali o'z bilimlarini oshiradi.

Ta'lim tizimida zamnaviy texnologiyalardan foydalanish uning sifatini oshiradi va dunyo tan olgan standartlarga javob beradigan kadrlar tayyorlashni osonlashtiradi. Shunday ekan, axborot texnologiyalari vositalarining bu sohadagi o'rni katta va shu bilan birga texnikalar yangilangani hamda rivojlangani sari yanada katta ahamiyat kasb etib bormoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I.Aldashev "Media ta'limning o'quv jarayoniga tatbig'i" Results of National Scientific Research International Journal 2023
2. I.Aldashev "O'qituvchi ishida ijodiy yondashish xususiyatlari" Results of National Scientific Research International Journal 2023 Volume 2| Issue 4
3. I.Aldashev, S.Aldasheva "Dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni" - ... and practical conference" the time of..., 2022 Related articles
4. Modern information technologies in education is a new opportunity I.Aldashev - Economy and society, 2020 Cited by 8 Related articles

5. Boshlangich talim jarayonida axborot texnologiyalarning o'rni A.Ilxomjon, T.Toxirjon - Miasto Przyszłości, 2022
6. Yuldasheva, G. I., & Shermatova, K. M. (2021). The use of adaptive technologies in the educational process. Экономика и социум, (4-1), 466-468.
7. Shermatova, G. Y. H. (2022). Aniq fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Scientific progress, 3(1), 372-376.
8. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2022). Ta'limda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilish istiqbollari. Science and innovation, 1(B8), 5-9. Dilshodaka, [06/01/2023 14:58]
9. Dovlatboyevich, D. M., & Komiljonovna, M. M. (2022). Oliy Ta'lim Muassasalrida Bulutli Texnologiyalardan Foydalanish Metodikasi. Miasto Przyszłości, 29,